

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH MEKANIZMLARI

Adjibayeva Gulasal Polatovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy
tumani 23-son DMTT direktori

Annatsiya: Ota-ona va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi samarali hamkorlik, MTT bilan ota – onalarning bir-biriga bog'liq jihatlar, Ota-onalar hamkorligini mustahkamlashning asosiy mexanizmlari haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: эффективное сотрудничество между родителем и образовательной организацией,. Упомянуты взаимосвязанные аспекты воспитания детей с МТТ, основные механизмы укрепления родительского сотрудничества.

Abstract: effective cooperation between parent and educational organization,. The interdependent aspects of parenting with MTT have been mentioned, along with the underlying mechanisms for strengthening parental cooperation.

Kalit so'zlar: MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat ,Ota-ona, hamkorlik, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, samara, tarbiyalanuvchi, maqsad.

Ключевые слова: Целями и задачами мтт являются: родитель ,сотрудничество, дошкольное образование, воспитатель, эффект, воспитанник, цель.

Key words: The goals and objectives of the MTT include ,parent, collaboration, preschool, educator, effective, nurturer, goal.

Oila bolaning ijtimoiylashuvining birinchi va asosiy omili hisoblanadi. Bu yerda u muloqot, hissiy bog'lanish asoslarini o'rganadi, shuningdek, birlamchi ko'nikma va bilimlarni egallaydi. Oila muhiti, ota-onalarning tarbiya uslubi va ularning oilada namuna bo'lishi, bola xarakteri va dunyoqarashining shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ota-ona va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi samarali hamkorlik — bu faqat ma'lumot almashish yoki majburiy yig'ilishlar emas; aksincha, **birgalikda qaror qabul qilish, mas'uliyatni bo'lishish, bolaning rivojlanishida oilaviy qadriyatlarni esga olgan holda pedagogik jarayonni uyg'unlashtirish** demakdir. Shu sababli bugungi kunda pedagogik amaliyotda innovatsion, interaktiv, kommunikativ mexanizmlar — masalan, oilaviy pedagogika klublari, onlayn muloqot platformalari, qo'shma loyihalar, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va psixologik treninglar keng joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar hamkorligini mustahkamlash mexanizmlarini yaratish nafaqat bola rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki ta'lim sifatini oshiradi, jamoada sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantiradi, oilaviy tarbiya madaniyatini yuksaltiradi. Shuning uchun mazkur mavzu pedagogika, psixologiya, oilashunoslik va boshqaruv sohalari uchun dolzarb bo'lib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar hamkorligini mustahkamlashning asosiy mexanizmlari

- Axborot-kommunikatsiya mexanizmlari
- Pedagogik-ma'rifiy mexanizmlar
- Hamkorlikka asoslangan faoliyat mexanizmlari

- Psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
- Monitoring va tahlil mexanizmlari

MTT bilan ota – onalarning bir-biriga bog'liq jihatlar. MTT bilan ota-onalar burchlari va vazifalari, maqsadi bir-biriga o'xshaydi. MTTning asosiy maqsadi bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezishlari amalga oshiruvchi ta'lim – tarbiya jarayonini olib borishdan iborat bo'lsa, ota-ona bolalarni ma'naviy barkamol qilib shakllantirishdagi asoslarni hosil qilishda MTTdan samarali foydalanish va bola aqliy kamolotini ma'naviy kamolot bilan uyg'un holda rivojlantirishga erishishdir. Bolalarning MTT dagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish. Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'i uchun g'amxo'rlik qilish. Maktabgacha ta'lim esa ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart– sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qilishdir. Bola shaxsini shakllantirish, bilimga qiziqishini rivojlantirishdir. MTTda bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlanadi. Bolada onglilik va ijodkorlikka qiziqish oshadi. Bunda MTT dagi va oiladagi ma'naviy sog'lom muhit e'tiborga olinadi. Ixtisoslashtirilgan MTT da bunga boshqa talab qo'yiladi. Bunda bolalarga ma'naviy immunologik tarbiya berish asos qilib olinadi. Oila va bola ma'naviyatining sog'lom bo'lishiga e'tibor beriladi. Bolalardagi tozalik, ozodalik, tartib – intizomlilik kabi insoniy sifatlar shakllanishiga asos yaratiladi. Bolalardagi ma'naviy – axloqiy tarbiya rivojlanishi e'tiborga olinadi. Bolalar ongida ezgulik insonlarni yaxshilikka yetaklashi haqidagi ma'lumotlar paydo bo'lishi e'tiborda bo'ladi. Turli salbiy oqibat-lar haqida bolalar ongida tasavvur paydo bo'ladi. "Ibrat – namuna – hayot dorilfununi" turkumi-dagi ma'lumotlardan foydalanish kerak. Bola tarbiyasidagi rag'batlantirish va jazolash me'yorlariga amal qilish lozim bo'ladi. Qiziqishga oid faol-iyatga moyillik kuchli bo'ladi.

MTT va oila uyg'unligida bola tarbiyasi samarali kechadi, agarda, birinchidan, MTTlaridagi ta'lim – tarbiya jarayonining optimal variantlari yaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, ota – onalar bolalar tarbiyasining quyidagi ma'naviy jihatlariga e'tibor berilsa:

- bola tarbiyasida yagona yondashuv shakllanadi;
- oilaviy tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatiladi;
- bolada ijtimoiy moslashuv jarayoni osonlashadi;
- ota-onalar pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

✚ bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

✚ maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;

✚ bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishi ularning jismoniy, aqliy, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan barcha ushbu jihatlarda rivojlanishiga imkon beradigan muhitni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu muvaffaqiyatli o'sish va hayotning turli sohalariga moslashish

uchun asosdir. Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish - bu bolalar ijtimoiy muhitda atrofdagilar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash jarayonidir. Ushbu ko'nikmalarga muloqot, hamkorlik, nizolarni hal qilish, do'stlik o'rnatish va guruhdagi muammolarni hal qilish qobiliyatlari kiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik samarali yo'lga qo'yilganda, bola tarbiyasi va ta'limi yuqori sifatda tashkil etiladi. Hamkorlikni mustahkamlash mexanizmlari — raqamli kommunikatsiya, interaktiv faoliyatlar, pedagogik-ma'rifiy dasturlar, oilaviy loyihalar va muntazam tahlil ishlari — ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Natijada bola uchun qulay psixologik muhit yaratiladi, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, maktabgacha ta'limning sifat ko'rsatkichlari oshadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'limda ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish haqida gap borar ekan avvalob ularni bir-biriga bog'laydigan usullarni o'ylab topish lozim. Masalan, ota-onalar yig'ilishlari. Bunda ota-ona bolasi haqida eng ko'p ma'lumotlarni shu jarayonda oladi. Ularga yig'ilishda o'zi uchun bolasi haqida mavzularni tanlashda quyidagi ro'yxat taqdim etilishi samarali:

- ✚ bolaning o'sishi va rivojlanishi;
- ✚ qiyin xulq-atvorni qanday tuzatish mumkin;
- ✚ bolaning ovqatlanishi; bolalar kasalliklari; o'yin orqali o'rgatish;
- ✚ shaxsiy qadr-qimmat hissini rivojlantirish; nutqni rivojlantirish;
- ✚ o'yinchoqlarni tanlash va h.k. Yana bir muhim usullardan biri bu bolalar bog'chalarida ota-ona burchaklarini tashkillashtirishdir.

Mahoratli tarbiyachi bir-birlarini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari uchun ikki nafar otani guruhga yoki yig'ilishga birgalikda kelishga taklif etadi, otalar bir-birlari bilan uchrashishlari va o'z bolalari to'g'risida fikr almashishlari uchun tadbir tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari tarbiyalanuvchilarning uylariga tashriflar o'tkazgan holda ota-onalar bilan va undan tashqari ularning boshqa oilaviy yaqin insonlari bilan yaqindan tanishi, ularning oilaviy va do'stona muhitlarini o'rganishi, o'z tajriba va sohalaridan kelib chiqqan holda oiladagilarga tarbiyalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan muhim omillar va oilaviy o'zaro do'stona muhitning bola psixologiyasi va uning ma'naviy kamoloti va yuksak salohiyati uchun naqadar muhim ekanligini tushuntirish ishlarini olib borish kabi bir qator hamkorlik tizimlari orqali bolajonlarni har tarafdin qo'llab-quvvatlash, ularni jismonan va ma'nan yetuk, o'ziga ishonchli, o'z maqsadiga ega bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashda ota-onalarning va oiladagilarning ham o'rni, ular bilan o'rnatilgan aloqa va hamkorliklarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tatbiq etish mumkin va bu zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arziqulova S.F. "Экономика и социум" №10(89) 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil. 8-bet
3. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil. 13, 15-bet.
4. Abdullaeva, M. (2020). *Maktabgacha ta'limda ota-ona va pedagog hamkorligi*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

5. Mirzaeva, L. (2019). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rivojlanish va ota-ona ishtiroki*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti.

6. Sobirova, D. (2018). *Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar va ota-ona bilan hamkorlik*. Toshkent: Ilm-fan.